

KONTEKSTUAL SINONIMLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI (ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI MISOLIDA)

Nasiba Jumayevna Yarashova

Navoiy innovatsiyalar universiteti kafedrası professori v.b., f.f.d. (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11096258>

***Annotatsiya.** Tilshunoslik ilmining keyingi taraqqiyoti til nazariyasi bilan bir qatorda uning amaliy tomonlarini ham o'rganishni talab qilmoqda. Ana shunday amaliy mashg'ulotlardan biri badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganishdir¹. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy va serqirra tildir. Shu ma'noda yozuvchi va shoirlar ma'nodoshlar orasidagi tasvirning maqsadi va mohiyatiga muvofiq va mos keladigan so'zlar topishga hamda kerakli o'rinda qo'llashga intiladilar.*

***Kalit so'zlar:** leksik ma'nodoshlik, frazeologik ma'nodoshlik, leksik-frazeologik ma'nodoshlik, kontekstual ma'nodoshlik.*

LINGUOPOETIC POSSIBILITIES OF CONTEXTUAL SYNONYMS (ON THE EXAMPLE OF ABDULLAH ORIPOV'S POETRY)

***Abstract.** The further progress of the science of linguistics requires, along with the theory of language, the study of its practical aspects. One such practical activity is the study of the linguistic features of a work of art. Uzbek is a very rich and fertile language with meaning. In this sense, writers and poets seek to find and apply in the desired place words in accordance with and in accordance with the purpose and essence of the image among the metaphors.*

***Keywords:** lexical meaningfulness, phraseological meaningfulness, lexical-phraseological meaningfulness, contextual meaningfulness.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ КОНТЕКСТНЫХ СИНОНИМОВ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ АРИПОВА)

***Аннотация.** Дальнейшее развитие лингвистической науки требует изучения как теории языка, так и его практических аспектов. Одним из таких практических занятий является изучение языковых особенностей художественного произведения. Узбекский язык очень богат и изобилует значимыми словами. В этом смысле писатели и поэты стремятся найти слова, которые соответствуют и соответствуют цели и сущности образа среди единомышленников, а также применять их там, где это необходимо.*

***Ключевые слова:** лексическое значение, фразеологическое значение, лексико-фразеологическое значение, контекстное значение*

¹ Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy tanqid va badiiy stil. - Toshkent: Fan, 1998. 76-bet.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning asosan uch turi farqlanadi:

- 1) Leksik ma'nodoshlik;
- 2) Frazeologik ma'nodoshlik;
- 3) Leksik-frazeologik ma'nodoshlik².

Leksik ma'nodoshlik til birliklarining takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ifoda g'alizligidan qochish uchun foydalaniladi.

Kontekstual ma'nodoshlik esa yuksak mahoratli yozuvchi va shoirlarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan foydalanib, ular tilda mavjud bo'lgan tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham qo'llashi nazarda tutiladi. Bu kabi so'zlar matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Mana shunday holatni Abdulla Oripov ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Abdulla Oripov she'riyatida juda rangin va takrorlanmas misralarni, bir martalik o'xshatish va qochirimlarni, ko'z ilg'amas darajada noziklik bilan tanlangan sinonimlarni uchratishimiz mumkin. Bu esa ijodkorning naqadar noyob she'r ustasi ekanligidan dalolat beradi. Ijodkor she'rlarini mutolaa qilganimizda, barcha she'rlarida sinonimlardan foydalanishda juda nozik did va nafosat bilan yondashganining guvohi bo'lamiz. Aslida bir sinonimik qatorni vujudga keltirmaydigan, hattoki ma'no jihatiga e'tibor qaratganda bir-biriga unchalik ham yaqin bo'lmagan so'zlarga ham nihoyatda nozik ma'no jo etib, ajib bir takrorlanmas ma'nodoshlikni hosil qilganiga amin bo'lamiz.

Masalan, Abdulla Oripov ijodiga mansub "O'zbekistonda kuz" she'rini tahlilga tortadigan bo'lsak, bu she'r misralarida kontekstual sinonimlikning nodir va takrorlanmas namunalarni uchratamiz:

Bir nafas boshingni ko'targin-u boq,
Yer yuzida nafis *viqor* va *nufuz*.

Bu misralarda viqor va nufuz so'zlari kontekstual sinonimlikni vujudga kelirgan. Ikkala so'z ham ma'no jihatdan bir-biriga yaqin emas, aslida. Ammo matnda ijodkor mahoratining natijasi o'laroq bu so'zlar ma'nodoshlikni vujudga keltirgan. Shu bilan bir qatorda ijodkor kuz tasvirini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish maqsadida bu kabi ma'no nozikliklaridan foydalangan.

Bu singari kontekstual ma'nodoshlikni keyingi misralarda ham kuzatishimiz mumkin:

Sening o'zing kabi *o'ychan* va *quvnoq*,
Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz.

² Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov M. O'zbek tili. - Toshkent: O'qituvchi, 1989. 29-bet.

Bu misralarda esa o‘ychan, quvnoq hamda xushfe’l leksemalari kontekstual sinonimlikni vujudga keltirgan. Boshqa ijodkorlardan farqli ravishda Abdulla Oripov ijodida yuqoridagi misrada aks ettirilgan kontekstual sinonimlikning uchta leksema orqali namoyon bo‘lishi shoirning badiiy mahorati va zukkoligi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Abdulla Oripov “Abdulla Qahhor” she’rini tahlilga tortganimizda, bor-yo‘g‘i ikki banddan iborat bu she’rda ham shoir kontekstual sinonimlikning nodir namunalari keltirib o‘tgan:

Yo‘llar ortimizda qolar edilar,
Sahrolar qolardi *cheksiz, betakror*.
Nega ular cheksiz, desam dedilar:
Bu yerdan o‘tgandi Abdulla Qahhor.

Ushbu birinchi badda ijodkor Abdulla Qahhor umri davomida bosib o‘tgan yo‘llar, sahrolarni cheksiz va betakror deya ta’riflar ekan, individual sinonimik qatorni vujudga keltirgan. Aslida bu so‘zlarning ma’nosiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, ular o‘zaro ma’nodosh emas. Shoir mahorati tufayli ular ushbu she’rdagina o‘zaro sinonim tarzda qo‘llanilgan.

Abdulla Oripovning “Dengizga” she’rida ham kontekstual sinonimlik holatini kuzatishimiz mumkin:

Sahroyi o‘zbekman, tole’yim kulib,
Muqimman, o‘z yurtim bilan hayotman,
Va lekin dunyoda shamolday yelib,
Dengizday *keng qalbni axtargan* zotman.

Ushbu to‘rtlikda so‘z+so‘z+sifatdoshli birikma asosida ma’nodoshlik yuzaga kelib, nihoyatda kam uchraydigan, takrorlanmas kontekstual sinonimlik qo‘llanilgan.

Abdulla Oripov qalamiga mansub “Kuz xayollari” she’rining ikkinchi bandida ham bu holat kuzatiladi:

Bunda ba’ri go‘zal: tim qora oqshom
Yulduzlar boqadi *tund* va *yovvoyi*.

Bu o‘rinda *tund* va *yovvoyi* leksemalari orqali kontekstual sinonimlik vujudga kelgan. Shu bilan bir qatorda ijodkor jonlantirishning betakror namunasini yaratib, yulduzlarning charaqlab turishini insonlar singari boqishga qiyoslamoda hamda bu qarashni *tund* va *yovvoyi* odamlar ko‘zlariga o‘xshatmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Oripov ijodida kontekstual sinonimlar juda mahorat bilan qo‘llanilgan. Boshqa ijodkorlar she’riyatida ham bu kabi takrorlanmas sinonimlikning turli namunalari ko‘zga tashlanadi, biroq shoir she’rlarining lug‘aviy tarkibi juda boy va rang barang bo‘lib, ularda so‘zlarning o‘rinsiz takrori deyarli uchramaydi. Bunga esa

ijodkor aynan kontekstual sinonim soʻzlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. Sheʼriyatda sinonimlarning bu kabi toʻgʻri va oʻrinli ishlatilishi asar qiymati va qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Yoʻldoshev B., Abdullayev D. Oʻzbek tilidagi polesemantik frazemalarni lugʻatlarda izohlash tamoyillari. – Samarqand: SamDU, 2013. – 146 b.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 120 b.
3. Yoʻldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Mumtoz soʻz. 2020. – 188 b.
4. Oʻrinboyev B. Oʻzbek tili soʻzlashuv nutqi masalalari. – Toshkent. 1974. 168 b.
5. Shodiyev R. Ruhiyat rassomi. – Toshkent: Fan, 1997. – 106 b.
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi. 1983. – 362 b.